

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha
proroktor, prof. Soleyev A.

№ 1230

2019-yil

2019-yil

Filologiyasi fakulteti

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası

«O'ZBEK FOLKLORI» fanidan

ISHCHI-O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 5120000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 - Filologiya (O'zbek filologiyasi)

I-kurs talabaları uchun, I-semestr

Jami o'quv yuklamasi – 128

Ma'ruza – 32

Amaliy – 20

Seminar – 16

Mustaqil ish – 60

Samarqand – 2019

«O'zbek folklori» fanining ishchi o'quv dasturi ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.


Tuzuvchilar: PhD. N. Muxitdinova

Taqrizchilar:

Tursunova M. dots, pedagogika fanlari nomzodi
SamDU, pedagogika fakulteti o'qituvchisi


Qobilov U. SamDU, «Istiqlol davri adabiyoti
va adabiyot nazariyasi»
kafedrası dotsenti.

«O'zbek folklori» fanining ishchi o'quv dasturi mumtoz adabiyot tarixi kafedrası 2019-yil 4-iyuldagi yig'ilishida muhokama etilgan va fakultet ilmiy va uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan (12-bayonnoma).

Kafedra mudiri:  prof. D. Salohiy

«O'zbek folklori» fanining ishchi-o'quv dasturi o'zbek filologiyasi fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 4-iyuldagi 11- bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi


 prof. J. Eltazarov

Fakultet uslubiy Kengashi raisi

prof. M. Abdiyev

Kelishildi:

Universitet o'quv-uslubiy
boshqarmasi boshlig'i:

 B. Aliqulov

KIRISH

“O‘zbek folklori” fanining ta’limiy maqsadi: talabalarga xalq og‘zaki ijodi haqida bilim berish, ularda folklor asarlarini tahlil va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

“O‘zbek folklori” fanining tarbiyaviy maqsadi: talabalarni milliy an’analarga nisbatan hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

“O‘zbek folklori “ fanining rivojlantiruvchi maqsadi: badiiy asar g‘oyasini ifodalashda folklor asarlari va an’analarining ahamiyatini belgilash, adabiyotshunoslik va xalq og‘zaki ijodining chambarchas bog‘liq ekanligini anglash hamda folklor asarlarini ilmiy jihatdan o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Folklor asarlari o‘zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g‘oyaviy mohiyati hamda o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turishi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g‘alabalari uning temasi va g‘oyaviy mazmunida aks etganligi.

Folklor asarlarining xalqchilik xususiyati ularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan bog‘langanligi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo‘lgan bosh g‘oyaning mohiyatidan kelib chiqishi. Folklor asarlari o‘ziga xos badiiy qolip-andozaga ham egaligi. Ayniqsa, ertak va dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo‘lib, har ikki janrga xos syujet voqelari doimo o‘ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo‘lishi xususida. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramasligi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo‘lishi, yo‘g‘rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o‘ziga xos uslubi sifatida namoyon bo‘lganligi.

“Folklor” termini haqida tushuncha. Xalq og‘zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O‘zbek xalq og‘zaki poetil ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari va an’analarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egaligi. Uning og‘zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an’anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo‘ljallangan bo‘lishi va kollektiv tomonidan e’tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, og‘zaki ijro etilishi. Xalq og‘zaki poetik ijodining kollektivlik xakteri individual ijodchilar faoliyatini inkor etmasligi. Iste’dodli ijodkorlar folklor namunalari saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og‘zaki an’analari doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda, yangilarini yaratilishi.

Qadimgi davr folklori. Xalq afsonalari

Qadimgi davr folklorlarining asl namunalari bizga qadar saqlanib qolmaganligi. Turli davrlarda ular turlicha o‘zgarishlarga uchraganligi. O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi folklorlarining ba’zi namunalari ayrim tarixiy, ijrochilarda, yodnomalarda qisman saqlanib qolganligi.

Turkiy xalqlar mifologiyasi. Mif (asotir) atamasi. Miflar jamiyat tafakkurining badiiy in’ikosi sifatida. “Avesto”ning mifologik asoslari. O‘rxun-enasoy bitiklarida folklor mativlari. Turkiy kitobiy doston va nasriy asarlar (“O‘g‘uznoma”, “Kitobi dadam Qo‘rqut”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatu-l-xaqoyiq”, “Qissai Rabg‘uziy”)da folklor an’analari. Totemizm, fetishizm, antimizm tushunchalari. Miflarda xalq e’tiqodlarining ifodalanishi.

Afsona va rivoyatlar, ularning hayot haqiqati bilan munosabati. Afsona va rivoyatlarning o‘xshash va farqli nomonlari. Qahramonlik afsonalari, “To‘maris” va “Shiroq” afsonalari. Afsonalarda Vatan tuyg‘usi. Xalq afsonalarida rasm-rusumlar, geografik nomalar, tarixiy voqealarning izohlanishi. Qirqqiz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari.

Xalq dostonlari

Doston o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog‘liqdir. Asriy kurashlar va ideallar uning tematikasi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi.

Turkiy epos va unda doston janrining tutgan o‘rni. Xalq dostonlarining janr tabiati. Dostonlar tasnifi. Doston ijrochilari. Dostonchilik maktablari. Dostonlarda variantlilik, turkumlik masalalari.

Qahramonlik dostonlari, ishqiy-romanik dostonlar, romanik dostonlar, kitobiy dostonlar.

Zamonaviy dostonchilik. Zamondosh doston ijrochilari. «Alpomish» dostoni va uning badiiyati, versiyalari, variantlari, asosiy obrazlar tizimi.

“Alpomish” dostoni

“Alpomish”-qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variantlari va versiyalar. “Alpomish” dostoni haqida munozaralar. Dostonning nashrlaridagi farqlari (1939,1958,1979,1992,1993,1998). Asarga islom dini ta’siri. Dostonning badiiy xususiyatlari. “Alpomish” dostoning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni va ahamiyati. «Alpomish» – qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma’lumot. «Alpomish» dostoni haqida munozaralar tahlili. «Alpomish» dostonining to‘liq matni, nashri va uning ming yillik yubileyi yuzasidan ma’lumot. «Alpomish» dostonida yurt birligi ifodasi. Dostonda mifologik dunyoqarash ildizlarining o‘rni va ahamiyati. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni va ahamiyati.

“Go‘r o‘g‘li” dostonlar turkumi

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va bolaligi”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Ravshan”, “Avazxon”, dostonlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

«Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlari. Go‘ro‘g‘li turkumining shakllanish tarixi. Mazkur turkumda o‘zbek xalqining milliy mentaliteti ifodasi. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Ravshan» dostonlari tahlili. Go‘ro‘g‘li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida.

Maqol va matallar

Maqol xalq og‘zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, u xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelganligi. Maqollar o‘zlarining ijtimoiy-g‘oyaviy funktsiyalariga ko‘ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba‘zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaganligi. Maqol termini arabcha “qavlun”(aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasi ekanligi.

Topishmoqlar

Topishmoq xalqning hayotini, turmush madaniyatini, urf-odatlarini, predmetlarning badiiy-estetik tomonlarini o‘zida aks ettiruvchi folklorning eng qadimiy, eng kichik va ixcham mustaqil janri ekanligi. Topishmoq janri o‘zbeklarda topishmoq, topmacha, topar cho‘pchak, top-top, jumboq, matal, masala kabi bir necha terminlar bilan yuritilganligi.

Topishmoqlar-xalq og‘zari ijodning kichik janri sifatida. Topishmoqlarning ma‘rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. An’anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari.

ASKIYA VA LATIFA

Askiya o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida. Askiya janridagi asarlarning ijro o'rni, ijrochilari. Askiyaning badiiy va g'oyaviy xususiyatlari. Askiya janridagi asarlarning kompozitsiyasi. Askiyada satira va yumorning o'rni. Askiya turlari. Payrov, safsata, o'xshatdim, va diolog shaklidagi askiyalar.

Latifalarning janr tabiati. Latifa janrining tarixiy asoslari. Latifalarning syujet tuzilishi va kompozitsion qurilishi. O'zbek xalq latifalarining obrazlar tizimi. Latifa janridagi asarlarda satira va yumorning tutgan o'rni.

Askiya janrining o'ziga xos belgilari. Askiya payrovlari haqida. Mashhur askiyachilar haqida ma'lumot. So'z o'yinlari. Ularda omonimlarni qo'lashdagi san'ankorlik. So'z o'yinlari va tuyuqlar.

Latifa so'zi arabcha lutf, latif so'zlaridan olingan bo'lib, nozik nafis ma'nolarini anglatishi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, xalq og'zaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi hajviy janrlaridan hisoblanganligi. Latifalar juda qadimiy bo'lishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bog'lanishi nisbatan keyingi davrlarga xosligi. Fikrning ixcham, lo'nda ifodalanishi va favqulodda chuqur mazmun bilan tugallanishi, ba'zan beg'araz, ba'zida achchiq kulgi uyg'otish latifalarning muhim belgisi hisoblanganligi.

LOF VA OG'ZAKI DRAMALAR

Lof mustaqil folklor janri sifatida. Lofning o'zbek xalq nasrida tutgan o'rni. Askiya va latifalarga munosabati. Lof ijrochilari, lofbozlar haqida.

Lofda satira va yumorning o'rni. Bu janrdagi asarlarda asosiy badiiy tasvir vositalari. Lof badiiyati, g'oya va mavzu ko'lami. Lof kompozitsiyasi, syujeti. Uning folklorning boshqa janrlaridan ajralib turishi.

Og'zaki dramalar-xalq ijodining mustaqil turi. Og'zaki drama va folklor teatrlari. Og'zaki dramaning g'oyaviy -tematik yo'nalishi. Masxaraboz va qiziqchilar teatri. Og'zaki drama ijrochilari haqida.

Xalq qo‘shiqlari

Qo‘shiqlar-o‘zbek folklorining qadimiy va keng tarqalgan janrlardan biri sifatida. O‘zbek xalq qo‘shiqlari janr mansubiyati, yaratilish davri, ijro o‘rni va turi kabilar jihatidan xilma-xillik kasb etishi. Bu jihatdan xalq qo‘shiqlari marosim va marosimga aloqasiz qo‘shiqlarga bo‘linishi. To‘y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig‘ilari marosim qo‘shiqlarini tashkil etilishi.

Qo‘shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo‘shiqlarining mavzusiga ko‘ra tasnifi. Marosim qo‘shiqlari va ularning turlari. Marosim qo‘shilarining hayotiy asoslari. Marsiyalar mehnatkash ommaning dunyoqarashi, psixologiyasi va estetik tafakkurlarining aks etishi. Tarixiy qo‘shiqlar. Tarixiy qo‘shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo‘shiqlarning ma‘rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

O‘zbek folklorida qo‘shiqning tutgan o‘rni. Qo‘shiq atamasining lisoniy tahlili. Qadimiy qo‘shiqlarning Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida keltirilishi. Qo‘shiqlarning vazn va to‘roqlari. Qo‘shiq janridagi og‘zaki asarlarning janr tabiati. Qo‘shiqlar tasnifi:

- mehnat qo‘shiqlari: Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, tijorat qo‘shiqlari.
- lirik qo‘shiqlar ularning janrlari va o‘ziga xosligi. Mavzu ko‘lami. Obrazlar silsilasi. G‘oyaviy- badiiy xususiyatlari.
- tarixiy qo‘shiqlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy jihatlari. Xalq qo‘shiqlari ijrochilari.
- termalar o‘zbek folklorining mustaqil janri. Uning yaratilishida baxshilarning roli. Terma janridagi asarlarning o‘ziga xosligi, boshqa janrlardan farqli tomonlari. Termalar tasnifi.

O‘zbek xalq ertaklari

Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lishi, hayotiy va hayotiy uydirmalar asosiga ko‘rilganligi, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi.

Ertak-o'zbek og'zaki prozasining etakchi janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ulug'vor g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, sotsial-ahloqiy ideallari o'ziga xos yo'sinda badiiy aks etadi. Binobarin, ertaklar hech vaqt bekorchi, ertak narsalar emas, ular hamma vaqt muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadilar.

Ertak epik folklorning mustaqil janri. ertak janridagi asarlarning o'ziga xosligi, boshqa janrlardan farqlanishi.

Ertaklar tasnifi. Tasnif prinsiplari. ertaklarning boshqa janrlar bilan munosabati. Bu janrdagi asarlarda mazmun va shakl masalasi.

Ertaklarda obrazlar talqini. G'oyaviy mazmun va konflikt, hayotiy voqeilik va xayoliy uydirma. Syujet va kompoziciya.

Bolalar folklori

Bolalar fol'klori xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar fol'klarining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot (hajm, syujet chizig'i, janrlar). Tez aytishning janr xususiyatlari. Bolalar ertaklari. Bolalar qo'shiqlari.

O'zbek marosim folklori

Marosim folklori haqida ma'lumot. Mavsumiy marosim aytimlari. Bahorgi mavsum bilan bog'liq aytimlar. Shox moylar marosimi. Navro'z bayrami bilan bog'liq marosimlar. Yomg'ir, shamol va boshqa tabiat hodisalari bilan bog'liq marosimlar. Yozgi va kuzgi marosimlar. «Choy momo», «Yo Haydar» qo'shiqlari. Haydar, Ajdar, Yallimomo kul'tlari bilan bog'liq tasavvurlar. Qishki marosimlar. Yas-yusun marosimi.

Oilaviy maishiy marosimlar. To'y marosimlari: beshik, xatna, nikoh to'ylari bilan bog'liq marosimlar va ularda aytiladigan aytimlar.

Motam marosimlari. Yig'i-yo'qlovlar, ularning mavzu ko'lami. Marosim aytimlarining janr tabiati.

So‘z magiyasiga asoslangan marosimlar. Xalq afsunlari, ularning janriy belgilari.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, «O‘zbek folklori» faniga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari, dissertatsiya va monografiyalar, internet ma’lumotlari, jumladan, literatura.uz , islom.uz kabi saytlaridagi ma’lumotlar dasturning informatsion-metodik ta’minotini tashkil etadi.

«O‘zbek folklori» fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik yangiliklarni nazariy va amaliy, seminar mashg‘ulotlariga tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fan asoslarini o‘zlashtirishda, amaliy ko‘nikmalar hosil qilishda eng yangi o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, audio-vizual materiallar, bilimni sinashning turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida mavzularga mos ravishda yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada fol’klor ekspeditsiyalarida yozib olingan og‘zaki ijod namunalaridan foydalaniladi. Xalq baxshilarining chiqishlari va ular bilan jonli uchrashuvlar davomida ijro qilgan dostonlar, termalardan parchalar yozilgan magnitafon tasmalari namoyish etiladi. Imkoniyat doirasida video, audiovizual materiallar ko‘rsatiladi. Mashg‘ulotlar davomida «Muammoli ta’lim», «Noan’anaviy dars», «Munozarali dars», «Jurnalist va og‘zaki ijodkor» ko‘rinishidagi darslar usullari qo‘llaniladi.

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik axborot-kommunikatsiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- xalq meroslari, qo‘shiqlari, dostonlari bo‘yicha nazariy ma‘ruzalarda audio-vizual disketlardan foydalanish;
- xalq og‘zaki ijodi asarlarini yozib olish, pasportini to‘ldirish bo‘yicha avvalgi yillardagi ekspeditsiya materiallaridan foydalanish;
- xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha jurnalist-studentlarning maqola, eshittirish matnlari, tele ko‘rsatuvlarini ma‘ruzalarda qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarga tadbiiq etish.

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta‘limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonviy zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Bumerang”, “Fikrlar hujumi”, “Tarozi” texnologiyasining “Munozarali dars”, “Debat” metodlari, shuningdek “O‘zbek adabiyoti” faniga oid slaytlar, korgazmalardan foydalanish, didaktik o‘yin usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Fanni o‘rganish quyidagi an‘anaviy va ilg‘or ta‘lim berish usullarini qo‘llangan holatda amalga oshiriladi: tezkor-sirov-test sirovlari, dasturiy ta‘lim "davra sushbatlari"ni qo‘llash, ishchanlik o‘yinlari, kollokviumlar, muammoli o‘qitish, o‘qitishda texnik vositalardan foydalanish va boshqalar qo‘llaniladi.

Talabalarning «O‘zbek folklori” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mavzularni o‘tishda yangi pedagogik texnologiya usullaridan, turli zamonaviy ta‘lim metodlaridan unumli foydalanish fanni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bu borada dars jarayonida "Muammoli ma‘ruza"lar, "KS texnologiyalari", "Zakovat" o‘yinlaridan keng foydalanish yaxshi natija beradi.

Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, ovozli yozuv va video ko‘rsatuvlardan, hujjatli filmlardan, slaydlar va multimediyali elektron darslik va qo‘llanmalardan,

Afsonalar Obrazlar muzeyi ekspozitsiyalaridan foydalaniladi. Ayrim mashg'ulotlar maxsus jihozlangan (proyektorli) xonalarda o'tkazilishi talab etiladi.

Dialogik yondashuv natijasida talabalarning o'z-o'zini faollashtirishi, o'z-o'zini, bilimni ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish orqali demokratik, tenglik, ta'lim oluvchi faoliyati mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Muammoli ta'lim, ya'ni ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyati faollashtiriladi.

Axborot taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash, ya'ni yangi kompyuter va axborot texnologiyalridan o'quy jarayonida foydalanish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari. Dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari. O'qitishning an'anaviy shakllari(darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda, kompyuter va axborot texnologiyalri.

Kommunikatsiya usullari. Talabalar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari. Kuzatish, blis-so'rov, joriy va yakuniy nazorat natijalari tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari. O'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi taxnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi harakati, faqat auditoriyadagina emas, shu bilan bir qatorda, auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash. O'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari,

og'zaki va yozma ish variantlari yordamida talabalarning bilimni baholash. Nazorat topshiriqlari, tarqatma materiallar, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida JB, OB va YB sinovlari o'tkazish. So'nggi natijalar YB sinovlari tarzida o'tkaziladi va baholanadi.

«O'zbek folklori» fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

T.r	Mavzular nomi	Jami soat	Ma'ruza mashg'ulot	amaliy-mashg'ulot	seminar mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
1.	Mustaqillik davrida "O'zbek xalq og'zaki ijodi"ni o'rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma'naviy tarbiyaning poydevori.	6	2	2	-	2
2.	Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Xalq og'zaki ijodi janrlari tasnifi va tavsifi:	8	2	2	2	2
3.	Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar.	10	2	2	2	4
4.	Mavsumiy, oilaviy marosim folklori va ularning badiiyati. O'zbek folklorida ramz va timsollar	2	2			
5.	Xalq dostonlari, dostonchilik maktablari, dostonlar tavsifi.	10	2	2	2	4
6.	Qahramonlik dostonlarining g'oyaviy badiiy xususiyatlari	2	2			
7.	“Alpomish” dostonining миллий-адабий аҳамияти	10	2	2	2	4
8.	Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar. Go'ro'g'li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida.	8	2	2	2	4
9.	Romanik va kitobiy dostonlarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari	8	2	2	2	2
10	Xalq ertaklarining janr xususiyatlari va mazmuniga ko'ra turlari.	8	2	2	-	4
11	Xalq qo'shiqlari – lirik janr sifatida. Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari.	10	2	2		4
12	Kichik janrlar: maqol, matal va topishmoq, olqishlar va qarg'ishlar janrlar poetikasi.	8	2	2	-	4
13	Xalq dramasi: qo'g'irchoq teatri, og'zaki drama va ijro san'ati.	6	2	2	-	2
14.	Satirik va yumoristik janrlar: askiya, lof, latifa.	8	2	2	2	2
15.	Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari.	6	2	-		4
16.	Mustaqillik davri o'zbek fol'klorshunosligi.	8	2		-	4
		128	32	20	16	60
			Jami 128			

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar mavzuga aloqador manbalarni o'rganish asosida ma'ruza darslarida olgin ma'lumotlarini mustahkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Bunda asarlarning hayotiga oid qo'shimcha ma'lumotlar, badiiy asarlarning janr xususiyatlari, mavzusi, mazmun va g'oyaviy mundarijasi, badiiyati tahlil etiladi. O'qituvchi zimmasiga fikr va ma'lumotlarni saralash, to'ldirish, izohlash va baholash kabi vazifalar yuklatiladi. Amaliy mashg'ulotlarda ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan yangicha usullarni qo'llash nazarda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarning mavzusi va rejasi "Fanning ishchi dasturi" va "Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi"da, olib borish jarayoni "Ta'lim texnologiyalari"da o'z ifodasini topadi.

Fan asoslarini o'zlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarida berilgan ma'lumotlarning ko'nikmaga aylanishi uchun xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talaba nazariy tushunchani mukammal egallash maqsadini qo'yadi.

№	Mavzuning nomi	Soat
1	Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari..	2
2	Afsona, asotir, rivoyat janrlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
3	Xalq dostonlari va dostonchilik maktablari . Baxshilik san'ati.	2
4	Qahramonlik dostonlari. "Alpomish" dostonining variant va versiyalari.	2
5	Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar. Go'ro'g'lining tugilishi	2
6	«Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlaridagi obrazlar tizimining voqealar rivojidadagi o'rni. "Ravshan" dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.	2
7	"Kuntug'mish" dostonida sevgi va vafo ifodasi.	2
8	"Layli va Majnun" dostonining yozma namunalari qiyosi	2
9	Xalq maqollari va topishmoqlar talqini.	2
10	Satirik drama: askiya, lof va latifa janrlari.	2
	JAMI:	20

Seminar mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza, amaliy mashg'uloti hamda mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amalda ko'rsatib beradilar va yanada boyitadilar. Matn bilan ishlash, tahlil va talqin etish, lug'atlar asosida olib boriladigan faoliyatga ko'proq ahamiyat qaratiladi. Seminar darslari trening shaklida, talabalar faoliyatini tashkil qilish, nazorat qilish va baholash tarzida o'tkaziladi. Seminar darslarining mavzusi, rejasi va o'tkazilish tartibi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda "Fanning ishchi dasturi", "Seminar darslari ishlanmasi" va "Ta'lim texnologiyalari"da ifoda etiladi.

№	Mavzuning nomi	Soat
1	Xalq og'zaki ijodining janrlari. Janrlararo munosabatlar	2
2	Qadimgi afsona va rivoyatlar: To'maris, Shiroq, Zarina, Zariadr, Rustam, Elikbek, Qayumars, Jamshid, Siyovush, Mitra haqidagi asotir, afsona va rivoyatlar tahlili.	2
3	“Alpomish” dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.	2
4	“Malika ayyor” dostonining g'oyaviy va badiiy tahlili.	2
5	Ertak va uning janr xususiyatlari. «Uch og'ayni botirlar» ertagining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	2
6	Xalq qo'shiqlarining tasnifi va badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarda timsollar	2
7	. Xalq dramasi-qo'g'irchoq teatrining turlari: “Chodir jamol”, “Chodir xayol”, “Fonus xayol”	2
8	Bolalar folklori janrlari va o'yinlari. O'zbek marosim folklori	2
	J A M I:	16

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

«O'zbek xalq og'zaki ijodi»fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi til o'rganish jarayonining bevosita tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda adabiyotshunoslik fanlari (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik desertaciyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarini tayyorlash.

O‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish.
- Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- Talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish.
- Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari.

O‘tilgan materiallarning o‘zlashtirilishi, konspektlar, uy vazifalarini tekshirish va baholash mashg‘ulot olib boruvchi o‘qiyuvchi tomonidan doimiy tarzda har bir dars davomida olib borilsa, referatlar himoyasi jadval asosida amalga oshiriladi.

«O‘zbek folklori» fanidan mustaqil ish majmuasi yil davomida o‘tiladigan materiallarni qamrab oluvchi quyidagi mavzularga bo‘lib berildi.

T.r.	Mustaqil ta’lim mavzulari	Topshiriqlar	Bajarish muddati	Belgilangan soat
1.	Maxmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridagi folklore materiallari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	sentabr	6
2.	Joynomlari bilan bog‘liq rivoyatlarni yozib kelish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	sentabr	6
3.	Xalq baxshilari va ularning dostonchilikdagi o‘rni mavzusida referat yozib kelish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	oktabr	4
4.	“Dada qurqut kitobi” va “Alpomish” dostonining qiyosiy tahlili.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	oktabr	4
5.	“Oysuluv” dostonida obrazlar tizimi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	noyabr	4
6.	O‘zbek xalq ertaklarining o‘rganilishi va ularda qo‘shaloqlashtirish usuli.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	noyabr	6
7.	Maqol va hikmatli, topishmoqlar bilan tanishish va uning uslubi, ko‘chma ma’nosini izohlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	noyabr	6
8.	Xalq qo‘shiqlarida timsollar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	dekabr	6
9.	Xalq orasida eshitgan latifa, lof, askiyalarni yozib kelish.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	dekabr	6
10.	Navoiy ijodida folklor an’analari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	dekabr	4
11.	Bolalar folklori namunalarining o‘ziga xos belgilarini aniqlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	yanvar	4
12	To‘ra Mirzayevning o‘zbek folklorshunosligiga qo‘shgan hissasi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	yanvar	4
Jami:				60

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

«O'zbek folklori» fani o'quv dasturining mazmuni quyidagi manbalarda o'z ifodasini topgan:

1. «O'zbek folklori» fani bo'yicha ma'ruza matnlari.
2. Amaliy mashg'ulotlarning mavzu va mazmuni, ularni tashkil qilish uchun uslubiy ko'rsatmalar.
3. Seminar mashg'ulotlarining mavzu va mazmuni, ularni tashkil qilish uchun uslubiy ko'rsatmalar.
4. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun topshiriqlar to'plami va uslubiy tavsiyalar.
5. Kurs ishlari mavzulari va uslubiy ko'rsatmalar.
6. Glossariy – asosiy tushuncha va atamalarning izohli lug'ati.

Fanni o'zlashtirishda adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar: darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ilmiy adabiyotlar va adabiy matnlardan bevosita foydalanish nazarda tutiladi.

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada folklor ekspeditsiyalarida yozib olingan og'zaki ijod namunalaridan foydalaniladi. Xalq baxshilarining chiqishlari va ular bilan jonli uchrashuvlar davomida ijro qilgan dostonlar, termalardan parchalar yozilgan magnitafon tasmalari namoyish etiladi. Imkoniyat doirasida video, audiovizual materiallar ko'rsatiladi. Mashg'ulotlar davomida «Muammoli ta'lim», «Noan'anaviy dars», «Munozarali dars», «Jurnalist va og'zaki ijodkor» ko'rinishidagi darslar usullari qo'llaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik axborot-kommunikatsiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- xalq meroslari, qo'shiqlari, dostonlari bo'yicha nazariy ma'ruzalarda audiovizual disketlardan foydalanish;

- xalq og‘zaki ijodi asarlarini yozib olish, pasportini to‘ldirish bo‘yicha avvalgi yillardagi ekspeditsiya materiallaridan foydalanish;
- xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha jurnalist-studentlarning maqola, eshittirish matnlari, tele ko‘rsatuvlarini ma‘ruzalarda qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarga tadbqiq etish.

«O‘zbek folklori” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari

«O‘zbek folklori” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va yakuniy nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma‘lumotlar birinchi mashg‘ulotda talabalarga yetkaziladi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta‘lim standartlariga muvofiqligini ta‘minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabalarning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalari darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat amaliy mashg‘ulot davomida og‘zaki so‘rov, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish, test o‘tkazish va boshqa shu kabi shakllarda o‘tkaziladi.

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat semestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli (yozma yoki test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YN)** – semestr yakunida fan bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan **“Yozma”** sinov tarzida o‘tkaziladi..

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o‘tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YNni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilganda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida uning «O‘zbek folklori» fani bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. Talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **100** ballik tizimda baholanadi. Bu ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: **JN +ON= 70 ball, YN – 30 ball.**

Ball	Baho	Magistrantlarning bilim darajasi
90-100	5-A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
80-89	4-Yaxshi	Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
60-79	3-Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
0-59	2-Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

- fan bo‘yicha saralash bali 55 balni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi;

- talabalarning «O‘zbek folklori» fanidan mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegisli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi;

- Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55

foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo‘yicha 55bal va undan yuqori ballni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 balidan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a‘zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Кўрсаткичлар	ОН баллари		
		макс	1-ОН	2-ОН
1.	Darslarda qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarinig yuritilishi va to‘liqligi.	15	0-7	0-8
2.	Talabalrning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarishi va o‘zlashtirish.	10	0-5	0-5
3.	Og‘zaki savol-javoblar va boshqa nazorat turlari natijalari bo‘yicha	10	0-5	0-5
Jami ON ballari		35	0-17	0-18

Talabalar JNdan to‘playdigan ballar mezoni

T.r.	Ko‘rsatkichlar	JN ballari		
		Maksimal	1-JN	2-JN
1.	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirish darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarnig yuritilishi va holati.	20	0-10	0-10
2.	Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi,. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarining bajarilishi va o‘zlashtirish darajasi.	10	0-5	0-5
3.	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga	5		0-5

	berilgan javoblar.			
	Jami JN ballari	35	15	20

**Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida bo‘lib, yakuniy nazorat 30 ballik
“Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.**

/n	KO‘RSATKICHLAR	YaN ballari	
		Maksimal ball	O‘zgarish oralig‘i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
	Jami YaN ballari	30	30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshiriladi, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-3 ball oralig‘ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin. Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari qo‘shiladi va yig‘indi talabaning yakuniy nazorat bo‘yicha o‘zlashtirish bali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «SHarq» nashriyot matbaa kontsernining bosh tahririyati, 1997.
2. Karimov I.A. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq. «Xalq so‘zi» gazetasi 1999 yil 9-noyabr.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2010.
4. Ш. Мирзиёев. Эрким ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони (Халксўзи 2017 йил, 8 феврал).
6. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
7. Ш.Мирзиёев. Кунун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараккиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
9. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. -Ò.: "Fan", 2009.
- 10.Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TDMI, 2008.
- 11.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Ò.: "Musiqqa" nashriyoti, 2010.
- 12.. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Ò.: "Mumtoz so'z", 2010
- 13.O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T va boshqalar. - T.: "Aloqachi", 2008.
- 14.Imomov K., Mirzaev. -T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: «O‘qituvchi», 1990.
- 15.Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetic ijodi. –T.: “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
- 16.«Alpomish» – O‘zbek xalq qahramonlik eposi. -T.: «Fan», 1999.
- 17.O‘zbek fol‘klori ocherklari. –T.: «Fan», 1988.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirzaev T, Eshonqul J., Fidokor S. «Alpomish» dostonining izohli lug‘ati. – T., 2007.

2. Jo'raev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab fol'klori. –T.: «Fan», 2001.
3. Eshonqul J. epik tafakkur tadriji. –T.: «Fan», 2006.
4. Jo'raev M., Narziqulova M. Mif, fol'klar, adabiyot. –T.: Afsonalar Obrazlar nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
5. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki prozasi. –T.: «Fan», 1981.
6. Madaev O. «Alpomish» bilan suhbat. –T.: «Ma'naviyat», 1999.
7. Madaev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). –T., 1999.
8. «Alpomish» dostoni. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. –T.: SHarq kontserni, 1998.
9. Oq olma, qizil olma qo'shiqlar. –T., 1972.
10. Latifalar. –T., 1971.
11. O'zbek xalq ertaklari. –T., 2007.
12. O'zbek xalq maqollari. –T., 1988.
13. Topishmoqlar. –T., 1983.
14. Ravshan dostoni. –T., 19
15. X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: O'qituvchi, 1980.
16. K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarmsoqov, O.Sobirov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: O'qituvchi, 1990, 303 b.
17. SH.Xolmatov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –S.: SamDU, 1980.
18. O'zbek adabiyot tarixi. 5 tomlik 1 tom. eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. –T.: Fan, 1978, 328 b.
19. N.Mallaev. O'zbek adabiyot tarixi. –T.: O'qituvchi, 1976, 664b.
20. A.Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. –T.: 2004, 410 b.
21. E.Musurmonov. Bolalar fol'klori. –S.: SamDU, 2002, 112 b.
22. E.Musurmonov. O'zbek xalq dostonlari. –S.: SamDU, 2005, 52 b.
23. E.Musurmonov. O'zbek fol'klori materiallarini to'plashga oid metodik tavsiyalar. –S.: SamDU, 2005.
24. O'zbekiston xalqlari tarixi. –T.: Fan, 1992, 188 b.
25. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. –T.: Fan, 2003, 332 b.
26. Islom Nazar o'g'li. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdavnashr, 1953.
27. Bulbul taronalari. ergash Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari. 5 tomlik. –I.: Fan, 1971-1973.
28. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. –T.: Fan, 1979.
29. R.Muhammadiev. Askiya. –T.: O'zdavnashr, 1962.
30. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdavnashr, 1949.
31. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 t. –T.: FA, 1956-1957.
32. «O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar» seriyasida («Fan» nashr etilgan kitoblar).
33. Allomalar ibratlari. To'plovchi M. Murodov. T.: «YOsh gvardiya», 1982.
34. Askiya. O'XI. T.: FACN, 1970.
35. Afzalov M.I. O'zbek xalq ertaklari haqida. T.: «Fan», 1964.

36. Bobolardan qolgan naqlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M. Jo'raev, U. Sattorov T.: «Fan», 1998, 35-41-b.
37. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T.: "O'zbekiston", 1990.
38. Jo'raev M. O'zbek xalq taqvimini va mifologik afsonalar. T., 1994.
39. Jo'raev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. T.: «Fan», 1995.
40. Jo'raev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab fol'klori. T., 2001.
41. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.: «Fan», 1981.
42. Latifalar. O'XI. Ko'p tomlik, T.: G'ASN, 1971.
43. Muhammadiy R. Askiya. T.: O'zdavnashr, 1962.
44. Oxunjon qiziq hangomalari. T.: "Meros", 1993.
45. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. T.: G'ASN, 1982.
46. Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va hmor. T.: "Fan", 1965.
47. Ro'zimboev S. Hsuf masxaraboz. Urganch, 1995.
48. Topishmoqlar // O'XI. T.: G'ASN, 1981.
49. Umarov S. Rivoyat va hayot. T.: «Fan», 1988.
50. Farg'onalik qiziqchilar. T.: "Mehnat", 1994.
51. Hsupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. T.: «Fan», 1997.
52. Qadimgi afandi latifalari. T., 1993.
53. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. T., 1963. YAna: Xalq qo'g'irchoq teatri. T.: G'ASN, 1979; Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. T.: "O'qituvchi", 1981, 36-57- va 123-204-b.
54. O'zbek xalq maqollari // O'XI. T.: G'ASN, 1989.
55. «O'zbek xalq ijodi» ruknida FACH tomonidan nashr etilgan ertaklar to'plamlari: «Suv qizi» (1966), «Oltin olma» (1966), «Gulpari» (1969), «Kulsa-gul», «yig'lasa-dur» (1983), «Oltin beshik» (1985), «Zumrad va Qimmat» (1988), «Luqmoni hakim» (1998).
56. «O'zbek xalq fantastikasi» ruknidagi to'plamlar: «Oymomoda ajdaho» (1-kitob, 1983), «Qora dev» (2-kitob, 1984), «Ilon pari » (3-kitob, 1985), «YOnar daryo» (4 kitob, 1986), «Samo tulpori» (5-kitob, 1987), «Guliqahqah» (6-kitob, 1988), «Sehrli qiz» (7-kitob, 1989).
57. Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg'ishlar//O'zbek folklori ocherklari. Toshkent, t.1, 1988,128-152-betlar.
58. Katash S.S. Alkish sos (blagopojelaniya)- drevniy janr altayskogo folklori// Ulagashevskie chteniya. Vip.1. Gorno-Altaysk, 1976, s.63-77.
59. Qo'chqorov N. Xalq olqish va qarg'ishlarining tarixiylik principi // O'zbek tili va adabiyoti. 1991, № 6, 40-44-betlar.
60. Eshboeva F. Qarg'ish va uning doston tarkibidagi badiiy talqini // O'zbek tili va adabiyoti. 1998, № 5, 48-50-betlar.
61. Husainova Z. O'zbek topishmoqlari, -T.: "Fan" 1966.
62. O'gal B. Turk mifologiyasi. - Anqara. 1992.
63. Mamasoli Jumaboev O'zbek va chet el bolalar adabiyoti. -T.: "Manfviyat", 2001.
64. Jo'raev M. "Oy oldida bir yulduz" -T.: "Fan" 2000.

65. Murodov M. Erashev A. "Alpomishnoma" - T.: Sharq matbaa-nashriyot konsterni 2001
66. S. Mirzayeva. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. -T.: "Fan" 2004.
67. S. Mirzayeva. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. -T.: "Istiqlol". 2006.
68. J. Eshonqul. Folklor va obraz. Qarshi "Nasaf". 2004.
69. Allomalar ibrati. To'plovchi M. Murodov. T.: «YOsh gvardiya», 1982.
70. Askiya. O'XI. T.: FACN, 1970.
71. Afzalov M.I. O'zbek xalq ertaklari haqida. T.: «Fan», 1964.
72. Bobolardan qolgan naqlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M. Jo'raev, U. Sattorov T.: «Fan», 1998, 35-41-b.
73. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T.: "O'zbekiston", 1990.
74. Jo'raev M. O'zbek xalq taqvim va mifologik afsonalar. T., 1994.
75. Jo'raev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. T.: «Fan», 1995.
76. Jo'raev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab fol'klori. T., 2001.
77. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.: «Fan», 1981.
78. Latifalar. O'XI. Ko'p tomlik, T.: G'ASN, 1971.
79. Muhammadiy R. Askiya. T.: O'zdavnashr, 1962.
80. Oxunjon qiziq hangomalari. T.: "Meros", 1993.
81. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. T.: G'ASN, 1982.
82. Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va hmor. T.: "Fan", 1965.
83. Ro'zimboev S. Hsuf masxaraboz. Urganch, 1995.
84. Topishmoqlar // O'XI. T.: G'ASN, 1981.
85. Umarov S. Rivoyat va hayot. T.: «Fan», 1988.
86. Farg'onalik qiziqchilar. T.: "Mehnat", 1994.
87. Hsupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. T.: «Fan», 1997.
88. Qadimgi afandi latifalari. T., 1993.
89. Qodirov M. O'zbek xalq og'zaki dramasi. T., 1963. YAna: Xalq qo'g'irchoq teatri. T.: G'ASN, 1979; Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. T.: "O'qituvchi", 1981, 36-57- va 123-204-b.
90. O'zbek xalq maqollari // O'XI. T.: G'ASN, 1989.
91. «O'zbek xalq ijodi» ruknida FACH tomonidan nashr etilgan ertaklar to'plamlari: «Suv qizi» (1966), «Oltin olma» (1966), «Gulpari» (1969), «Kulsa-gul», «yig'lasa-dur» (1983), «Oltin beshik» (1985), «Zumrad va Qimmat» (1988), «Luqmoni hakim» (1998).
92. «O'zbek xalq fantastikasi» ruknidagi to'plamlar: «Oymomoda ajdah» (1-kitob, 1983), «Qora dev» (2-kitob, 1984), «Ilon pari » (3-kitob, 1985), «YOnar daryo» (4 kitob, 1986), «Samo tulpori» (5-kitob, 1987), «Gulqahqah» (6-kitob, 1988), «Sehrli qiz» (7-kitob, 1989).
93. Mallaev N. Navoiy ijodining xalqchil negizi. T., 1973.
94. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. T., 1974.
95. O'zbek fol'klarining tarixiy taraqqiyoti // O'zbek fol'klori ocherklari. 3 tomlik, 1-tom, T., 1988, 25-63-b.

96. Safarov O. Alisher Navoiy-fol'klorshunos. – O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1991, 7-son, 37-45-b.
97. El desa Navoiyni... // Hazrat Mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar. To'plab nashrga tayyorlovchi M. Jo'raev. T.: "CHO'lpon", 1991.

Xorijiy adabiyotlar:

1. Жирмунский В.М.; Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос.-М.; 1947.
2. Липец Р. А. Образ батыра и его коня в тюрско-монгольском эпосе. М.; 1987.
3. Фрейзер Э. Фольклор на ветхом завете. М.; 1989.
4. Мирзаев Т. Вопросы сравнительного изучения "Алпамыш" и "Алып-Манаш" // Фольклорное наследие народов Сибири и Дальнего Востока.-Горно-Алтайск, 1986.
5. Filologiya meseleleri №3. «Elm va tehsil». Baku. 2012.
6. Huseyn Baydemir. Uzbek efsaneleri. Erzurum. 2011.
7. Turk halk edebiyeti. Istanbul. 1995.
8. Nihad Sami Banarli. Turk adabiyati terihi. Istanbul,-2001

Internet va Ziyonet saytlari

98. «O'zbek folklori» fanining informasion ta'minoti INTERNETda www.literature.uz orqali aks etgan.
99. www.ziyonet.uz
100. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.